O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/10/1]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K: 376.26

***Mahliyo XAYDAROVA,***
*Termiz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, (PhD)*
*E-mail: mahliyoxabibullayevna@mail.ru*

*TDPU p.f.d. professor B.S.Abdullayeva taqrizi asosida*

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TARBIYA FANINI O‘QITISHNING MAZMUNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari va shu bilan birga, mamlakatimizda umumta’lim maktablarida ta’lim-tarbiyaga qaratilayotgan e’tibor, ta’lim jarayonlari haqida so‘z boradi. Tarbiyaning ob’yektiv qonunlarini – o‘quv tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va ijtimoiy hayotda insonlarning o‘ziga xosligi va sifatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan ilk tarbiya ko‘rinishlarini (oilada olgan tarbiyaviy bilimlar) yanada takomillashtirish o‘qituvchilar, tarbiyachilar, murabbiylarning oldida turgan muhim vazifa ekanligi asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** Tarbiya, o‘quv jarayoni, vazifa, o‘quvchilar, pedagog, o‘qitish, inson, e’tibor, umumta’lim, boshlang‘ich sinflar.

## СОДЕРЖАНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация

В данной статье написано о научно-теоретических основах преподавания образования в начальных классах, и в то же время внимание, уделяемое обучению в общеобразовательных школах нашей страны, обсуждаются процессы воспитания. Объективные закономерности воспитания - организация учебного процесса и развитие индивидуальности и качеств людей в общественной жизни, дальнейшее совершенствование доступных учащимся первых форм воспитания (хорошие воспитательные знания в семье) считаются важными задачами, стоящими перед педагогами, воспитатели, тренеры.

**Ключевые слова:** Образование, образовательный процесс, задача, учащиеся, педагог, учение, человек, внимание, общеобразовательные, начальные классы.

## THE CONTENT OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY CLASSES

Annotation

The objective laws of education - the organization of the educational process and the development of the individuality and qualities of people in public life, the further improvement of the first forms of education available to students (good educational knowledge in the family) are considered important tasks facing teachers, educators, coaches. The objective laws of education - the organization of the educational process and the development of the individuality and qualities of people in public life, the further improvement of the first forms of education available to students (good educational knowledge in the family) are considered important tasks facing teachers. , educators, coaches.

**Key words:** Education, educational process, task, students, pedagogue, teaching, human, attention, general education, primary classes.

**Kirish.** Jahonda zamon talablariga mos pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lgan pedagog kadrlarni tayyorlash, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini Tarbiya fanini o‘qitishga tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmlari ta’lim jarayoniga tatbiq etib borilmoqda. Jumladan, Janubiy Koreyada o‘tkazilgan Xalqaro ta’lim forumida 2030-yilgacha qabul qilingan «Incheon declaration»da «davlat tomonidan moliyalashtiriladigan, teng sifatli boshlang‘ich va o‘rta ta’limni ta’minlash» fan va ta’lim yutuqlarini o‘quv materiallari mazmuniga singdirib borish, ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, oliy ta’lim va umumta’lim muassasalarining didaktik imkoniyatlarini integratsiyalash, boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarni tartib-intizomga o‘rgatish va rivojlantirishga qaratilgan sifatli ta’lim xizmatlarini tashkil etish bo‘yicha yirik loyihalarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli ishlar bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda.

Ushbu masalaga yanada chuqurroq yondashish va amaliyotga joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yilining 23-avgust kuni Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish choralari to‘g‘risida”gi qaror loyihasi ishlab chiqildi. 2020-yil 6-iyulda “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 422-sonli qaror qabul qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Jahon ta’lim muassasalari va tadqiqot markazlarida yoshlar ta’lim-tarbiyasi, ularning munosib kasb-hunar egallashlari, ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish va kadrlar tayyorlashni zamon talabi darajasiga ko‘tarish, umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida ta’limni zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda mazmunan yangilash bo‘yicha ilmiy taqqiqotlar ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga uzluksiz ta’lim tizimini fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, raqobatbardosh o‘qituvchining pedagogik faoliyatida pedagogik, metodik tayyorgarlikni kuchaytirish bo‘yicha tadqiqotlarga e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. Natijada ish

beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash hamda oliy ta’lim tizimida faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari yanada kengayadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qarori umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining yoshiga xos psixo-fiziologik jihatlarini hisobga olgan holda ularda umuminsoniy qadriyatlar va barkamol ma’naviyatni, sog‘lom tarbiyaviy muhitni chuqur singdirish, o‘quvchilarni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumta’lim muassasalarida ma’naviy va tarbiyaviy ishlarni yangicha ko‘rinishda tashkil etishga qaratilganligini anglashimiz mumkin.

Qarorga muvofiq umumta’lim muassasalarida «Vatan tuyg‘usi», “Odobnoma”, “Dunyo dinlari tarixi» hamda «Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” fanlarini birlashtirib yagona Tarbiya fani 1-9-sinf o‘quvchilariga 2020/2021-o‘quv yilidan boshlab, 10-11-sinf o‘quvchilariga esa 2021/2022-o‘quv yilidan boshlab o‘quv soatlariga ajratilgan asosiy soatlar doirasida ketma-ketlikda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Insonlarning umr kechirishi davomida olgan ta’limlari, orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining o‘zgalarga o‘rgatish, baham ko‘rish jarayoni tarbiya deyiladi. Biz tarbiyani keng ma’noda ijtimoiy hodisa sifatida qo‘llaganimizda jamiyatimizning barcha bo‘g‘inlarida tarbiyaviy vositalarni o‘z ichiga olganini qo‘ramiz. Tarbiyaning ob’yektiv qonunlarini – o‘quv tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va ijtimoiy hayotda insonlarning o‘ziga xosligi va sifatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan ilk tarbiya ko‘rinishlarini (oilada olgan tarbiyaviy bilimlar) yana ham takomillashtirish o‘qituvchilar, tarbiyachilar, murabbiylarning oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Zero, tarbiyani ajdodlarimiz azal-azaldan ijtimoiy hayotimiz uchun kerakli bo‘lgan hodisalarning asosi sifatida ko‘rganlar. Avvalo, tarbiyaning mazmun-mohiyatiga, turlariga to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. O‘zbek tilining izohli lug‘atida quydagicha ta’rif berilgan: Tarbiya- 1) parvarish qilmoq; ta’lim bermoq; o‘rgatish; 2) navozish; mehribonlik ko‘rsatish; ko‘z-quloq bo‘lish; himoya qilish kabi ko‘p qirrali ma’nolarga ega. Tarbiya so‘ziga ko‘plab olimlar va o‘z sohasining yetuk mutaxassislari ham fikr-mulohazalarini bildirib o‘tganlar. Jumladan, rus pedagogi Makarenko: “Hamma narsani tarbiyalashadi: odamlar, narsalar, hodisalar, hammasidan ko‘ra ko‘proq-odamlarni. Ulardan, birinchi navbatda, ota-onalar va o‘qituvchilarni", deb aytgan edi. Pedogogning mazkur mulohazasini asosli fikr sifatida qabul qilamiz, zeroki, bolalarni tarbiyalovchi insonlarni tarbiyalamasdan turib maqsadga erishib bo‘lmasligiga yana bir karra amin bo‘ldik. Tarbiyachi-pedagog o‘zi tarbiyalangan, axloq-odobli, xush xulq-atvorli ya’ni o‘quvchiga har tomonlama namuna bo‘la olishi lozim. Tarbiyani amalga oshirishning vosita, usullari va omillari ko‘pdir. Bular: xalq ta’limi tizimi, ommaviy axborot vositalari, targ‘ibot va tashviqot guruhlari va h.z. Tarbiya doimiy, izchil va maqsadli bo‘lishi lozim. Yo‘qsa tarbiyadan ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. N.M.Koshanovaning fikricha, tarbiya mavsumiy, ma’lum bir vaqtga mo‘ljallangan ish emas, balki jamiyat va davlat ahamiyatiga molik kechiktirib bo‘lmas, uzluksiz davom etadigan jarayon va strategik masaladir. Tarbiya jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’sirida amalga oshiriladigan dinamik tizim sifatida qaraladi. Tarbiya jarayoni ta’lim muassasasi pedagogik faoliyatining yadrosidir. Bolalarimizni har taraflama yetuk xulq-atvorga ega, talantli, qobiliyatli, o‘ziga ishongan shaxs qilib tarbiyalash va buning uchun barcha kerakli, zaruriy shart-sharoitlar yaratish, o‘z taqdirini o‘zi belgilay oladigan, jamiyatda o‘z o‘ringa ega, doimo oilam, yurtim deydigan sog‘lom fikrli o‘quvchilarni tarbiyalash tarbiya faninig asosiy mazmun mohiyati va maqsadidir. Shunday ekan, avvalo biz tarbiyani oiladan, bog‘cha va maktabning boshlang‘ich sinflaridan boshlashimiz kerak.

Yuqorida joriy etilgan qarorlardan kelib chiqib, maktablardagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda “Tarbiya” fani bosqichma-bosqich joriy qilinishi belgilandi. Boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishning pedagogik jihatlarini asoslash, o‘qitish amaliyotiga qanday tadbiq qilish va ushbu fanni o‘quvchilar ongiga chuqur singdirish va shu kabi bir qator masalalar yuzasidan tadqiqotchilar ishlanish olib bormoqdalar. Shuningdek, konseptual asoslar, nazariyalar va modellarni qanday qo‘llashni bilishni o‘z ichiga oladi. Konseptual asoslar - bu dunyoning keng ko‘lamli qarashlari. Nazariy asos - bu bizning tadqiqotimizni boshqaradigan muammoni tushuntirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan rasmiy, ko‘rib chiqilgan nazariy modeldir. Shu o‘rinda o‘z o‘zidan savol tug‘iladi. Nima uchun nazariy asos muhim? U o‘qituvchilarni mavjud bilimlarga tegishli nazariya bo‘yicha yo‘l-yo‘riq orqali bog‘lashga, shuningdek, gipotezalar asosini va tadqiqot usullarini tanlashni ta’minlaydi. Bu tarbiya fanini o‘quvchilarga o‘rgatishda kuzatilgan qiyinchiliklarni turli tomonlarini oddiy tasvirlashdan va tushuntirishdan umumlashtirishga yordam beradi va ularning chegaralarini ham aniqlaydi. Tarbiya fani orqali maktab o‘quvchilarini kelajakka yo‘naltirish: o‘ziga bo‘lgan ishonchni rivojlantirish, ularga o‘ziga xosligini tushunishga, boshqa odamlarning fikrlarini hurmat qilishga o‘rgatish, o‘zini xolis baholash, o‘z qobiliyatlari, malakalarini hisobga olgan holda kelajak uchun real rejalar tuzish, o‘z-o‘zini anglashi, o‘zini boshqarish tizimini takomillashtirish ishbilarmonlik, axloq va tashabbuskorlikni tarbiyalash, ularning oilalari, o‘qituvchilar bilan o‘zaro aloqalarini faollashtirish lozim. Bizning fikrimizcha tarbiya jarayoni maxsus ishlab chiqilgan bo‘lishi, ya’ni bolaning o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirilgan maqsadga muvofiq tizim bo‘lgandagina haqiqiy bo‘ladi.

Ta’limsiz shaxs ham, insoniyat jamiyati ham mavjud bo‘lolmaydi. Chunki inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlovchi qadriyatlar avloddan-avlodga faqat tarbiya tufayligina o‘tib boradi. Pedagogik adabiyotlarda “Ta’lim” atamasi keng va tor ma’noda qo‘llaniladi. Keng ma’noda ta’lim deganda shaxs shaxsini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotdagi faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, faoliyatlar, harakatlar va intilishlar yig‘indisi tushuniladi. Bu tushunchada ta’lim nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar, balki butun ijtimoiy tizim, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio, televideniya va hokazolarni ham o‘z ichiga oladi. Ta’lim keng ma’noda ta’lim va axborotni o‘z ichiga oladi.

Yoshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda sharq mutafakkirlarining duru javohirga teng ma’naviy meroslari dasturilamal bo‘la oladi. Abu Nasr Forobiy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Ismoil Al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Firdavsiy, Amir Temur, Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli va shular singari boshqa aql egalarining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta’limotlariga tayanib ish ko‘rilsa tarbiya ta’sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi. O‘zining o‘tmish madaniy merosini chuqur bilmagan va e’zozlamagan odam, o‘z shajarasini, avlod-ajdodlari bosib o‘tgan yo‘lni, milliy istiqlolimiz, erkimiz va ozodligimiz yo‘lida jasorat ko‘rsatgan Shiroq, To‘maris, Jaloliddin Manguberdi va boshqa buyuk zotlar, xalq qasoskorlarining nomlari, kurashlarining

tub mohiyatini ilg‘ay olmaydi. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, yosh avlodlarni tarbiyalab yetishtirish – muqaddas burchimiz, or-nomusimiz. Lekin, ijobiy axloqiy hislatlarni tarbiyalab yetishtirish oddiy, jo‘n ish emas. U kunlab, oylab, yillab va hatto o‘n yillab oliy maqsad yo‘lida sabr-toqat, chidam va qat’iyatlilik, irodaviy sifatlarni safarbar etishimizni taqozo etadigan insoniy vazifamizdir.

Xulosa. Axloq kishining oilaga, mehnatga va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Musulmon axloqining asoslari mazmunan boy va rang-barang ko‘rinishlarda o‘zligini namoyon etadi. Demak, barkamol inson tarbiyasining yetakchi bo‘g‘inini tarkibiy qismi axloqiy tarbiya-insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi mukammallikka erishtiruvchi vositadir. Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg‘on kitobdir. Xuddi shu ma’noda axloq kishining xulq-atvorida, e’tiqod-iymonida, yurish-turishida, kundalik turmushida, fikr-mulohazasida, mushohada va muloqotida ko‘rinadi. Axloqli inson o‘zini qattiq hurmat qiladi, unda ichki intizom kuchli bo‘ladi. Musohib ko‘ngilga qarab gapiradi, kishining dilini og‘ritmaydi, tashqi muomalasi bilan uning qalbini yashnatadi, muloqot odobiga rioya qiladi. Yuqoridagi fikrlar shundan dalolat beradiki, jamiyatimizning kuchi fan-texnika taraqqiyoti, moddiy boyligimiz bilan bir qatorda ma’naviy boyligimiz, hayotimiz ma’nosi bo‘lmish axloqiy kamolotdadir.

**ADABIYOTLAR**


1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406 son Qonuni. 2016 yil 14 sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida” O‘RQ-637-son Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni. https://lex.uz/docs/4545884.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4623-son Qarori. https://lex.uz/docs/4749364
6. Nilufar Maxsudovna Koshanova. Umumta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitish: davr talabi, etiyoj va zaruriyat. 2022. Volume 3.
7. Haydarova M.X. Boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishning pedagogik asoslari // O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari. –Toshkent, 2022. B-221-224. ISSN 2181-7324.
8. Haydarova M.X. Model and psychological and pedagogical conditions conducive to the formation of managerial competenge of future primary school teachers // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences (EJRRS). - Vol. 7 No. 11, 2019. ISSN 2056-5852. P-90.